# 69. Qo‘shish bilan ayirish orasidagi bog‘lanish

qo‘shish
ayirish
teskari amallar







**Qo‘shish va ayirish bir-biriga teskari amallar hisoblanadi.**

**1.** O‘zbek alifbosida 29 ta harf bor, ulardan 6 tasi unli harflar. Alifboda nechta undosh harf bor? Ifoda tuzing va yozing.

**2.** Rasmga qarang va misollarni yeching.

$30 + 4$ $\qquad$ $34 - 4$

$4 + 30$ $\qquad$ $34 - 30$



Bunday misollar qanday ataladi?

**3.** Hisoblang.

| | | |
|---|---|---|
| $56 - 34$ | $98 - 43$ | $44 + 45$ |
| $17 + 22$ | $64 - 52$ | $34 + 62$ |

Javobingizni tekshiring.

CHOP ETISH UCHUN EMAS

**4.** Shaklni toping. Bu shakl uchburchak ham, oltiburchak ham emas, uning uchlari soni beshdan kichik, uning nomeri uning tomonlari soniga teng emas.




**5.** Shakllarni quyidagi guruhlarga birlashtiring.

yopiq chiziqlar — ochiq chiziqlar



**6.** Ikki xonali sonlarni o‘sish tartibida joylashtiring va til haqidagi maqolni toping.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 20 | 14 | 17 | 25 | 15 |
| G | T | L | A | I |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 35 | 29 | 31 | 26 | 38 | 36 |
| B | T | I | E’ | R | O |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 50 | 42 | 48 | 45 |
| A | E | G | L |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 58 | 63 | 55 | 52 | 71 | 56 |
| B | O | T | E’ | R | I |

**7.** Kataklarda olmaxon rasmini bo‘yang.



**8.** Bo‘g‘irsoq quyongacha 10 metr, bo‘rigacha 20 metr, so‘ng ayiqqacha 30 metr va nihoyat tulkigacha 40 metr yumalab bordi. Hammasi bo‘lib u necha metr yumaladi?

CHOP ETISH UCHUN EMAS